

BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING DARSDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Saliyeva Perdexan Alimbetovna

Qoraqalpog'iston Respublikasi pedagogik mahorat markazi

*“Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari” kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarining darsda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning mazmuni haqida so'z borgan.

Zamonaviy talablar asosida umumiy o'rta ta'lim maktablari pedagog xodimlarining kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, ularning kasbiy kompetentligini muntazam oshirishni nazarda tutadi. Ta'lim sifatini oshirish bo'yicha bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan.

Kalit so'zlar: uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi, pedagogik etika va muloqot madaniyati, kasbiy rivojlanish, kasbiy faoliyat.

ЗНАЧЕНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ УЧИТЕЛЯМИ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Салиева Пердехан Алимбетовна

*доктор философии педагогических наук, доцент кафедры
методики дошкольного, начального и специального образования,
центра педагогического мастерства Каралпакской Республики*

Аннотация. В данной статье рассматривается содержание использования инновационных педагогических технологий на уроках учителями начальных классов. Рассматривается развитие профессиональных знаний,

умений и навыков педагогических работников общеобразовательных школ на основе современных требований, а также регулярное повышение их профессиональной компетентности. Статья направлена на формирование знаний, умений, навыков и компетенций, способствующих повышению качества образования.

Ключевые слова: система непрерывного профессионального развития, педагогическая этика и культура общения, профессиональное развитие, профессиональная деятельность

THE IMPORTANCE OF USING INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN LESSONS BY PRIMARY SCHOOL TEACHERS

Saliyeva Perdexan Alimbetovna

Associate professor of the department of "preschool, primary, and special education methodologies", doctor of philosophy in pedagogical sciences, pedagogical center of the Republic of Karakalpakstan

Annotation. *This article discusses the content of using innovative pedagogical technologies in lessons by primary school teachers.*

It addresses the development of professional knowledge, skills, and competencies of pedagogical staff in general secondary schools based on modern requirements, as well as the regular enhancement of their professional competence. The article is aimed at forming knowledge, skills, abilities, and competencies to improve the quality of education.

Keywords: *continuous professional development system, pedagogical ethics and communication culture, professional development, professional activity.*

Mamlakatimizda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar mutaxassislarining malaka darajasi, kasbiy rivojlanishi va kompetentligiga yangi talablar qo'yimoqda. Bir qator qonunlar, farmonlar, hujjatlar pedagog kadrlarning kasbiy

darajasini uzluksiz rivojlantirish modellari va amaliyotlarini yaratish va amalga oshirish jarayonlarini tezlashtirdi. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi (2019), Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti (2021), Pedagog maqomi to'g'risida qabul qilingan qonunchilik (2023) pedagoglik kasbiga bo'lgan yondashuvlarni, shuningdek, bugungi kunda umumiy ta'limda nafaqat predmetli, balki shaxsiy, metapredmetli natijalarga erishishga, bilim, ko'nikma va malakalarni real hayotiy vaziyatlarda qo'llashga, kasbiy kompetentlikni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayonining sifati va natijalariga qo'yiladigan talablarni sezilarli darajada o'zgartirdi. O'qituvchilar malakasini oshirish milliy tizimini ishlab chiqish, joriy etish va amalga oshirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi "2022-2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-79-son Farmonida belgilangan. Mazkur qarorlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida malaka oshirish tizimida boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash zarurati dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishning nazariy muammolari xorijlik olimlardan D.Deyn, R.Berns, V.B.Gargay, D.Kimmel, M.Noulzlarning tadqiqotlarida o'rganilgan. Ular pedagoglarning NTR modellarining xususiyatlarini (o'qitish modeli; yangi kasbiy maqomga ega bo'lishga qaratilgan model; kasbiy etishmovchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan model; "kaskad" modeli va boshqalar) taqdim etadi. Ular pedagoglarning kasbiy mustaqilligini qo'llab-quvvatlash qobiliyati va pedagogik faoliyatning o'zgartiruvchi tabiatiga ko'ra tasniflanadi.

Jahon amaliy tajribasi tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, malaka oshirish dasturlarining majburiy tarkibiy qismi ularning amaliyotga yo'naltirilganligi (treninglar, jamoada ishlash, hamkorlikda loyihalashtirish va boshqalar) hisoblanadi. Aynan amaliy xususiyat ularni o'qituvchilar orasida jozibador va talabgir qiladi, ta'limda kompetensiyaviy yondashuvga to'liq javob beradi va yangi bilimlarning amaliy ahamiyatini anglashga imkon beradi. Kasbiy ko'nikmalarni rivojlantiruvchi amaliyotga yo'naltirilgan dasturlarga bo'lgan talab o'qituvchilarning ish sharoitlari va ta'lim muhitining o'ziga xos xususiyatlarini xalqaro miqyosda o'rganish (Teaching and

Learning International Survey, TALIS) bilan tasdiqlanadi: o'qituvchilarning 90 foizi bunday dasturlarni o'zlashtirish natijasida kasbiy rivojlanishning ijobiy natijalarini qayd etgan.

Qayd etilishicha, bir qator xorijiy mamlakatlarda majburiy yillik malaka oshirishning qat'iy belgilangan muddati belgilangan: 7 kundan (Finlyandiya) va 18 kungacha (Buyuk Britaniya), 25 kungacha (Ispaniya) va 30 kungacha (Janubiy Koreya, Daniya).

Xalqaro tajribalar kontekstida o'qituvchilarning samarali qo'shimcha kasbiy ta'limi muammolari ajratib ko'rsatilgan.

Yosh o'qituvchini rivojlantirishga e'tibor qaratish. AQSH, Janubiy Koreya, Finlyandiya kabi mamlakatlarda murabbiylik tizimi va maxsus baholash majmuasi mavjud bo'lib, u pedagogning rivojlanishini kuzatish imkonini beradi. Kompleks yondashuvning ahamiyati pedagoglarning malakasini oshirishda nafaqat kasbiy, balki shaxsiy fazilatlar ham hisobga olinadi. Inklyuziv ta'lim sohasida pedagoglar kompetentligini rivojlantirish zarurati kasbiy standartlarga e'tibor qaratish, inklyuziv ta'lim texnologiyalari va metodikalarini o'zlashtirish o'qituvchidan qo'shimcha bilim va ko'nikmalarni talab qiladi.

Xalqaro tajribalar asosida muammolarni hal qilishning ayrim yondashuvlari tahlil qilingan: Guruhlarda o'qitish, masalan, Xitoyda pedagoglar maqsad va ta'lim manfaatlariga ko'ra maxsus jamoalarga birlashadi. Bunday guruhlar tajriba almashish, yangi pedagogik yondashuvlarni o'rgatish uchun ishlatiladi. Rivojlanishning individual usullari. Pedagoglar o'z bilimlarini takomillashtirmoqchi bo'lgan sohani va qo'yilgan maqsadga erishmoqchi bo'lgan yondashuvni tanlashlari mumkin. Uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimlarini yaratish. Masalan, Gonkong va Finlyandiyada pedagogik mutaxassisliklarni tanlashning qat'iy qoidalari va talablari, shuningdek, milliy tarixiy-madaniy xususiyatlar va qadriyatlarga asoslangan muvaffaqiyatli kasbiy pedagogik faoliyat uchun motivatsiya mexanizmlarini yaratish mavjud.

Xorijda o'qituvchilar malakasini oshirish modellarining misollarini umumlashtirib, ularning asosiy vazifasini ajratib ko'rsatamiz: o'qituvchining kasbiy rivojlanishini shakllantirish uchun pedagogik kadrlarni moslashuvchan, mobil, tezkor va samarali

uzluksiz o'qitish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-23-son qaroriga tayangan holda O'zbekiston Respublikasi malaka oshirish tizimida malaka oshirishning xorijiy tajriba va modellarini inobatga olish maqsadga muvofiq. Tinglovchilar uchun o'quv dasturlarini ishlab chiqishda ularning kasbiy tajribasi, yangi funksiyalarni o'zlashtirish va kompetensiyalarni rivojlantirish uchun o'qituvchilarning tajribasi va toifasini hisobga olish va o'qituvchilarning qo'shimcha ta'lim tizimida modul dasturlarini keng tanlash zarur.

O'qituvchi malakasini oshirishning shaxsiylashtirilgan modelini qurish dolzarb yo'nalish sifatida e'tirof etilmoqda. Qo'shimcha kasbiy ta'limni rejalashtirish davrida kasbiy rivojlanish natijalari uchun pedagogning motivatsiyasi va shaxsiy mas'uliyatini kuchaytirish uchun subyekt pozitsiyasini hisobga olish kerak.

"Hamrohlik" ta'rifining umumfalsafiy asosi kasbiy rivojlanish sharti sifatida erkin tanlov nazariyasidir. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv ilmiy hamrohlik asoslarini shakllantirishning dastlabki holatidir. Ushbu yondashuv subyektning kasbiy-shaxsiy takomillashuv yo'nalishlarini tanlashi sifatida rivojlanishni nazarda tutadi.

O'qituvchining kasbiy rivojlanishi uning o'z pedagogik tajribasini tahlil qilmasdan, uni o'z ta'lim muassasasidan tashqaridagi hamkasblari bilan baham ko'rishga intilmasdan amalga oshirib bo'lmaydi. Mavjud ta'riflarni inobatga olgan holda, biz boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy rivojlanishini uning metodik kompetentligi nuqtayi nazaridan ko'rib chiqamiz.

Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'qituvchilarni kasbiy rivojlantirishning metodik ta'minoti mazmuni masalalari pedagog maqomi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq pedagogning kasbiy darajasini oshirishga hissa qo'shadigan pedagoglarning kasbiy rivojlanishini real uslubiy qo'llab-quvvatlash, pedagoglar tomonidan yangi kasbiy kompetensiyalarni o'zlashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni talab qilishi ta'kidlandi. Pedagogning ta'lim yo'nalishini aniqlash uchun pedagogning maqomi to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi bo'yicha pedagoglarning kasbiy darajasi diagnostikasini o'tkazish shartlari va mezonlari belgilandi.

Bugungi kunda qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishga to'sqinlik qilayotgan bir qator muammolar mavjudligi ta'kidlangan. Ular orasida malaka oshirish tizimining ta'lim oluvchilar bilan ishlashda ularni o'quv jarayoniga jalb qilish, faollashtirish, o'quv axborotining passiv iste'molchilaridan yangi bilimlarni olishning ijodiy hamkorlariga aylantirishga qodir bo'lgan yangi o'qitish texnologiyalari ustuvor bo'lishi kerak. Qo'shimcha nafaqat malaka oshirish kurslarini tizimli o'tkazish markaziga, balki pedagoglarning mustaqil ishlarini tashkil etish markaziga, mintaqaviy ilmiy-metodik markazga aylanishi kerak, bu esa malaka oshirishning mintaqaviy modellari paydo bo'lishi bilan uzviy bog'liqdir. Qo'shimcha ta'lim sohasida ta'lim faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar o'z faoliyatini o'qituvchilar hamjamiyatining ehtiyojlariga muvofiq qayta qurayotgani, so'nggi paytdagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarda malaka oshirish tuzilmasida shakl va metodlarni tanlashda variativlik imkoniyati va zarurati to'g'ridan to'g'ri ko'rsatilganligi ta'kidlangan.

Malaka oshirish tizimida hamrohlik qiluvchining asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat: ekspert, motivatsion, loyihalash, uslubiy, texnologik, maslahat, boshqaruv, diagnostika.

Pedagogning kasbiy rivojlanishini tadqiq etishning metodologik yo'nalishlari - bu o'qituvchining kasbiy va shaxsiy fazilatlaridagi ijobiy o'zgarishlar jarayoni bo'lib, u bolalarning har tomonlama rivojlanishiga, har bir bolaning ma'lum standart natijalariga erishishiga hissa qo'shib, pedagogning yangi kasbiy va shaxsiy fazilatlarni egallashga, yangi funksiyalarni o'zlashtirishiga yordam beradi. Pedagoglar kasbiy rivojlanishining bir nechta bosqichlari ajratib ko'rsatilgan: kasbni egallash, kasbiy kompetentlik, o'zini o'zi anglash, turg'unlik.

Malaka oshirish tizimining asosiy vazifasi - butun hayoti davomida o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini takomillashtirish va o'z-o'zini tarbiyalashga qodir bo'lgan, kasbiy vazifalarni mustaqil va ijodiy hal qilishga tayyor, pedagogik faoliyatning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatini anglaydigan, uning natijalari uchun javobgar bo'lgan pedagog shaxsini shakllantirishdan iborat. Bunday sharoitda boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy rivojlanishiga qo'yiladigan asosiy psixologik-pedagogik talablar quyidagilardan

iborat: kasbiy-pedagogik kompetentlik; pedagogik faoliyatga kasbiy va shaxsiy tayyorgarlik; boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy muhitga moslashuvchanligi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-79-son farmoni va 2024-yil 21-iyundagi "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 231-son qarori hamda "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2024-yil 7-avgustdagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilari uchun "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlarini bosqichma-bosqich joriy etish to'g'risida"gi 246-son buyrug'i, shuningdek, maktab ta'limi tashkilotlari pedagog va mutaxassis kadrlarini uzluksiz malakasini oshirishning ilg'or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tatbiq etish, maktab ta'limi tizimida kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy etish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, zamonaviy talablar asosida umumiy o'rta ta'lim maktablari pedagog xodimlarining kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, ularning kasbiy kompetentligini muntazam oshirishni nazarda tutadigan talab va vazifalar belgilangan.

Ta'lim sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish, umumiy o'rta ta'limda boshlang'ich ta'limni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari hamda maktab ta'limi sifatini yaxshilashda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik etika va muloqot madaniyati, ta'limdagi islohotlar va sohaga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlar mazmuni, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillari, ta'lim-tarbiya jarayoniga o'qitishning ilg'or, innovatsion texnologiyalarini samarali joriy etishga ilmiy yondashuvi, sinfni boshqarish, ota-onalar va o'quvchilar bilan muloqot va hamkorlik qilish, o'quvchilar faoliyatini baholash usullari, Xalqaro baholash dasturlari talablari asosida ta'lim sifatini oshirish mexanizmlari bo'yicha tegishli kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'zidagi uslubiy bilimlarni rivojlantirishi uchun metodik kompetensiyaning keltirib o'tilgan vazifalarini o'rganishi hamda ularni

amaliy tajribada qo'llanishi orqali erishadi. Turli pedagogik o'zgarishlar natijasida o'qituvchining metodik qobilyati shakllanadi. Pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchi tarbiyadagi qiyinchiliklarni engishga qodir bo'lgan o'qituvchi, o'sib kelayotgan yosh avlodning o'ziga xos hususiyatlarini tushuna oladigan, ularning tuyg'ularini his qila oladigan, ichki dunyosi nozik va zaif bo'lgan, bola hayotidagi turli qiyinchiliklarni ko'ra oladigan va ularga mohirlik bilan yondashadigan, bilim va kreativlikni o'zida mujassam etgan chuqur ilmiy fikrga ega shaxs hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi mehnatining maqsadi yoshlarga o'qish va yozishni o'rgatish orqali voqelikdagi jamiki narsa - hodisalar haqida bilim berish, ularda insonga xos bo'lgan sifat hamda fazilatlarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son farmoni, - T.: 2022.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022-2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida" PF-134-son farmoni, - T.: 2022.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-231-son qarori, - T.: 2024.
4. Teaching Knowledge Test (TKT), Modules 1-3. Handbook for Teachers, University of Cambridge ESOL Examinations
5. Хасанова, Г. (2021). Олий таълим муассасалари педагогларининг Креатив қобилиятларини ривожлантиришнинг мазмуни. Academic Research in Educational Sciences, 2(1), 778-782